



INGLIZ TILIDA TARIXIY SHAXSLAR BILAN BOGLIQ FRAZELOGIK BIRLIKLARNING OZBEK TILIDA BERILISHI

Nargiza Khurramova

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- October 2023 yil

Ma'qullandi: 28- October 2023 yil

Nashr qilindi: 31-October 2023 yil

KEY WORDS

phraseology, synonymy of phraseological units, antonymy, idiom, proverb.

ABSTRACT

This article provides a comparative study of the interrelationships and differences between the phraseological units of the Uzbek and English languages, as well as the forms of their translation.

Bugungi kunga kelib zamonaviy tilshunoslikda frazeologiya alohida o'ringa ega. Bu soha keyingi paytlarda rivojlanib va buning ustida ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Frazeologiya iboralar haqidagi bilimdir. Iboralar, so'z uyushmalari, erkin va turg'un uyushmalar bo'lib frazeologiyada ular tuzilishi va ma'no jihatdan o'rganiladi. Frazeologik birlik nutqqa daxldor bo'lgan birlik bo'lib, birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishidagi birikuvdan tashkil topgan obrazli ma'noviy birlik hisoblanadi. tepa sochi tikka bo'ldi, boshi osmonga yetdi; to show the right feather, to play the first fiddle. Barcha tillardagi frazeologik birikmalar, xususan ingliz tilidagi frazeologik birikmalar ham, millatning donishmandligi ko'rsatuvchi xalq ijodi sanaladi. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarni kelib chiqishiga ko'ra olimlar uchta katta guruhga ajratadi: 1. Ingliz tilidagi ko'hna frazeologik birikmalar 2. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan frazeologik birikmalar 3. Ingliz tilining amerika variantidan olingan frazeologik birikmalar Frazeologik birliklar ingliz xalqining ko'hna odatlari, tarixiy haqiqatlari, an'analari bilan bevosita aloqador. Ko'pgina frazeologik birikmalar ingliz xalqining an'analari va e'tiqodi, Angliya tarixining biz bilgan va bilmagan tarixiy haqiqatlarini aks ettiradi. Ko'plab ingliz frazeologizmlari badiiy asarlardan, turli adabiyotlardan olingan va yozuvchilarning asarlari, bolalar she'riyati, ertaklar va karikatura kabilar ularning kelib chiqish manbasi sanaladi. Masalan ingliz yozuvchi Uilyam Shekspir ingliz lug'atini boyitishga katta hissa qo'shgan. U yaratgan frazeologizmlar Bibliyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Hozir ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz: Cakes and ale - (s.s.) pirojnoye va pivo; tashvishsiz quvonch, hayotdan zavqlanmoq. A fool's paradise - hayoldagi baxt, hayot dunyosi. Give the devil his due - dushmanga tan bermoq. The green-eyed monster - (k.u.) yashil ko'zli berahm odam; rashkchi. Have an itching palm - poraxo'rlik qilmoq; tamagir. Lay it on with a trowel - bo'rttirib maqtamoq, haddan tashqari maqtamoq Not to care a fig - hammaga birdek bo'lmoq That's got him - qilmish-qidirmish There is a deer - ziyrak bo'ling! I am fed up with it! - jonga tegdi! Yetadi! To have a go - sinab ko'rmoq. Shekspirdan tashqari yana ko'plab ingliz yozuvchilar frazeologiya lug'atini boyitishgan. Ular: Jeffri Choser, Edmond Spenser, Tomas

Braun, Volter Skott va hokazo. Odatlar, an'analar va e'tiqodga aloqador frazeologizmlarning mualliflari noma'lum, ular qadimda-qadimda xalq orasida shakllanib borgan. Bunday frazeologik birliklar xalq ijodi namunalari. Ular bir tildan ikkinchi tilga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki o'sha tildagi ekvivalenti olinadi. Bunga sabab har bir xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va an'analari turlicha bo'lganligidir. Masalan: bite off more than one can chew – nonni katta tishlamoq, kuchi yetmaydigan ishga chiranmoq, behuda urinmoq, ortiqcha chiranish bel chiqarar; Have a bee in one's bonnet – bo'lmag'ur fikrlar bilan boshini band qilmoq, Hold one's head high – boshini baland tutmoq; dance attendance on somebody – laganbardorlik qilmoq, biror kimsa uchun yugurmoq, kimningdir xizmatiga doim tayyor bo'lmoq, also ran – musobaqaning omadsiz ishtirokchisi, omadsiz. Musobaqalardan keyin e'lon aytilsa also ran so'zlari bilan boshlangan. Frazeologiya sohasini o'rgangan tilshunos olimlardan biri bu A. Mamatov o'zbek frazeologik birikmalarini shakllanish jihatidan o'rgangan holda 4 ta tasnifga ajratadi: 1. Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar: ko'ngli ochiq, hafsalasi pir bo'lmoq, yerga ursa ko'kka sapchimoq va hokazo. 2. Kasb-korga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar: bo'zchining mokisidek. 3. Hayvonlarga xos obrazlar asosida shakllangan frazeologizmlar: oyog'i kuygan tovuqday, ammaning buzog'iday, to'ygan qo'zi va hokazo. 4. Dinga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar: xudo ko'tarsin, payg'ambar hassasi bilan turgan singari. Frazeologizmlarda ham leksemalarda bo'lagani kabi sinonimlik, antonimlik, omonimlik holatlari kuzatiladi. H.Jalmonxonovning fikriga ko'ra bunday munosabat asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik anotonimiya vujudga keladi. Masalan og'zi qulog'ida va boshi osmonga yetdi frazeologik birliklari o'zaro sinonim, har ikkalasi ham quvonch va xursandchilikni bildiradi. Ko'kka ko'tarmoq va yer bilan bitta qilmoq esa o'zaro antonim birliklar sanaladi. To get the bit between one's teeth o'zini tuta olmaslik To take the bit between one's teeth o'zidan ketmoq To nip in the bud ildizini quritmoq To check in the bud ildizini quritmoq To leave no stone unturned barcha imkoniyatlarni ishga solmoq To move heaven and earth qo'lidan kelganini qilmoq Bu frazeologizmlar o'zaro sinonim hisoblanadi. Ingliz tilida ham frazeologik birliklar nutqqa tayyor shaklda olib keladi, ularni boshqa so'z almashtirib bo'lmaydi va bu nutqni yanada obrazli qilishga yordam beradi. Idiomalar ya'ni barqaroq birikmalar nutqda hamma uchun tushunarli bo'lgan va bevosita nutqda qo'llash qulay bo'lgan birikmalardir. Xuddi o'zbek tilidagidek ingliz tilida ham sinonim, antonim, omonim iboralar talaygina. Misol uchun, a dark house – sirli va black ship- o'zgalardan ajralib turadigan, sirli ma'nolarini bildiruvchi bu ikki birikmalar bir-biriga sinonim bo'la oladi. Ingliz idiomalari ham yuqoridagi kabi black ship, dark hourse kabilar hayvonlar guruhiga mansub frazeologik birliklar hisoblanadi. Frazeologik birliklar nutqni yanayam chiroyli qiladi va tilni boyitadi. Ularning kelib chiqishi, tarixi, nima asosida shakllanganligi to'g'risida ko'plab ingliz, rus, o'zbek olimlar ilmiy ishlar olib borgan. Tilshunos ingliz olimi L.Graff frazeologik birikmalar va ularning uslubiy bog'lanishidagi farqini tavsiflab bergan. Va u breakfast so'z ham to break fast turg'un birikmasidan kelib chiqqanini aytadi. O'zbek tilida ham bo'lgani kabi ingliz tilida boshqa tildan kirib kelgan so'zlar, iboralar va idiomalar bir talay. Ayniqsa fransuz va lotin tillaridan ko'plab frazeologizmlar o'zlashtirilgan. Bundan tashqari yunon, ispan, italyan va yana boshqa tillardan ham kirib kelganlari mavjud. O'zlashtirilgan frazeologik birikmalar o'zida kitobiylikni namoyon etadi. Frazeologik birikmalar ham bir necha shaklda o'zlashtiriladi: so'zma-so'z o'zlashtirish masalan, make believe- mug'ombirlik qilmoq; biroz

o'zgartirish kiritgan holda, bir qismini o'zgartirib, bir qismini tarjima qilish (a propos (yoki apropos) of nothing – hech narsadan hech narsa yo'q, bekordan bekorga) kabi. O'zbek va ingliz tillarida so'zmaso'z tarjima qilinadigan va bir-biriga bevosita to'g'ri keladigan frazeologizmlar ko'p uchraydi. Masalan, to play with fire-o't bilan o'ynashmoq, first think, then speak-avval o'yla, keyin so'yla kabi.

Xulosa o'rnida, har bir til frazeologizmlar bilan rang-barang va boydir. Ularni kundalik hayotda qo'llash nutqimizni yanayam chiroyli va ravon qiladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan frazeologik birikmalarning tahlilidan shunday deyish mumkinki, Frazeologiyani tilshunoslikning bir bo'limi sifatida emas, mustaqil fan tariqasida o'rganilishi kerak. Frazeologik birliklarni nutqda qo'llab, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib, to'g'ri qo'llashga alohida e'tibor zarur. Bu birliklar nutqqa yoxud badiiy matnga emotsional-ekspressivlik hamda obrazlilik baxsh etishdan tashqari tilning naqadar lug'at imkoniyatlari ko'pligini belgilab beradi.

References:

1. Ginsburg R.S. A Course in Modern English Lexicology. M., 1979
2. Johnathan Swift. Polite Conversation. M., 2005.
3. Xurramova N. A. DIFFERENCES BETWEEN PHRASAL VERBS AND PHRASEOLOGISMS //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 7. – C. 99-102.
4. Abdurahmonovna X. N., Ravshanovna A. M. THE IMPORTANCE OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES.
5. Abdurahmanovna X. N. Teaching Foreign Languages at B2 Level //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 66-68.
6. Abdurahmanovna X. N. Teaching Foreign Languages at B2 Level //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 66-68.
7. Abdurahmanovna X. N. Teaching Foreign Languages at B2 Level //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 66-68.

INNOVATIVE
ACADEMY